

Ollaberganova Sanobar Xamidovna
Urganch davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası dotsenti, filologiya fanalri nimzodi

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI SAMARALI TASHIL ETISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashil etishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning metodik imkoniyatlari, boshlang'ich sinflarda ko'rgazmalilik, o'quvchilarning faolligini oshirish, tahlilda individual yondashish tamoyillari o'qitish jarayonida qo'llanadigan metod va usullarni belgilab berilishi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: nutq, adabiy tushunchalar, uzluksiz ta'lim, muammoli o'qitish, matnining tahlili, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning faolligini oshirish, o'qitish metod va usullari va hk.

Annotation: This article explores the methodological possibilities of employing problem-based learning technologies in the effective delivery of native language and reading literacy lessons. It highlights the use of visual aids in primary school classrooms, strategies for enhancing pupil engagement, and the principles of individualized approaches in text analysis. The study also outlines the instructional methods and techniques applicable to the teaching process.

Keywords: speech, literary concepts, lifelong learning, problem-based instruction, text analysis, visual aids, pupil of engagement, teaching methods and techniques, and so on.

Mamlakatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, milliy ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlash, ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishdagi islohotlar jamiyat ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etadi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldiga "...uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash" kabi vazifalar qo'yilgan bo'lib, bu jarayonga muammoli ta'limni olib kirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tarbiyashunoslikda ta'lim-tarbiyaning oldiga o'quvchini zarur bilimlar yig'indisi bilan ta'minlash doirasidan chiqib, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish, unda bilishga ichki ehtiyoj paydo qilish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish kabi sifat jihatidan yangi talablar qo'yilyapti. Maktabdan o'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish, bilim olish yo'lida bor imkoniyatlarini qo'llagan holda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish talab qilinyapti. Ta'limga bunday yondashuv, o'z navbatida, o'quvchini taqlidchilik, ko'chirmachilik, tayyor andozalar, belgilangan qoliplar asosida faoliyat yuritishdan qutqaradi.

"Muammoli o'qitish – bu o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar faoliyatini tashkil etish usuli bo'lib unda mavzu va ta'limning muammoli mazmuni o'rtasidagi o'zaro faol ta'sir o'tkazish, bu yo'lida bilimlarning ob'ektiv qarama-qarshiliklari va ularni hal qilish yo'llari bilan tanishtirish, fikrlashni, bilimlarni ijodiy o'zlashtirish jarayonidir". Ko'pchilik "muammoli ta'lim (yoki muammoli ta'lim texnologiyasi)"ni "muammoli metod" tushunchasi bilan adashtiradi. Gap shundaki, "muammoli ta'lim" yoki "muammoli ta'lim texnologiyasi" tushunchalari bitta hodisa. Har ikkalasi boshqa-boshqa shaklda ifodalangani bilan bitta tushunchani anglatadi va ularning zahirida asosan muammoli metod hamda muammoning yechimi bilan bog'liq bir qancha usullardan foydalaniladi. Muammoli metod zahirida hech qanday metod yo'q. Uning mazmunida faqat muammoning yechimini ta'minlashga xizmat qiladigan usullar mavjud bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday o'qitish tizimining o'ziga xos maqsad va vazifalari bo'ladi. Maqsadsiz har qanday faoliyat kutilgan samarani bermaydi. Shu ma'noda, muammoli ta'limning ham qaysi sohada, ta'limning qaysi bosqichida qo'llanilishidan kelib chiqadigan ma'lum maqsadlari mavjud. Uzluksiz ta'lim tizimida muammoli ta'limning maqsadi nafaqat ilmiy anglash yoki bilimlar tizimi natijalarini egallashdan, balki bu natijalarga erishish jarayoni, yo'llari, o'quvchi bilim olish faoliyatining shakllanishi va muammoli topshiriqlarni bajarish orqali ijodiy qobiliyatlarining shakllanishi yo'lida muammoli-ijodiy vaziyatlarni yaratishdan iboratdir.

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator maxsus vazifalar belgilangan:

- ☐ o'quvchilarni mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish;
 - ☐ o'quv materiallari dalillarga asoslangan holda o'quvchilar uchun ishonchli bo'lishi ta'minlash;
 - ☐ bilimlar tizimi, aqliy hamda amaliy faoliyatlarni samarali o'zlashtirishga hamkorlik qilish;
 - ☐ yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish;
 - ☐ bilish mustaqilligi hamda o'quv-tarbiyaviy muammolarni hal qilish;
 - ☐ o'quvchilarning bilim olish faoliyatini mustaqil va ijodiy darajasiga chiqarish;
 - ☐ o'quvchining yangi bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirishini ta'minlash;
- tarbiyalanuvchilarning bilim olishdagi mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish;
- ☐ mantiqiy usullar yoki ijodiy faoliyatning maxsus yo'llaridan foydalanib o'quvchilarda bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ko'nikmasini tarbiyalash;
 - ☐ hayotiy vaziyatga ko'ra, mavjud bilimlarni ijodiy ravishda qo'llash ko'nikmasini tarbiyalash;
 - ☐ ijodiy faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish va h.k.

Muammoli ta'limdagi yetakchi xususiyatlardan biri muammoli savol, muammoli topshiriq va muammoli vazifalar ko'magida o'quvchini muammoli vaziyatga sola bilishdir. Bu borada ham mutaxassislarining fikrlari mavjud: muammoli vaziyat – bu subyekt (o'quvchi) oldiga qo'yilgan o'zi uchun qiyin bo'lgan muammolarni yechishni xohlaydigan holat bo'lib yetarli ma'lumotga, bilimga ega bo'lmasa, o'quvchi izlanishga tutinadi. Muammoli vaziyatning asosiy elementi – noma'lum, yangi, belgilangan vazifani to'g'ri bajarish uchun, zarur bo'lgan xatti-harakatni to'g'ri belgilay olishidir.

Shu ma'noda muammoli ta'lim mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish, bu yo'lida uchragan to'siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy yondashgan holda bartaraf etish garovidir. Bu ta'lim o'quv materiali o'zlashtirilganligini tezgina namoyish etadi, mustahkamlaydi, bilimlarni qat'iylashtiradi. Ta'lim amaliyotida muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanilganda tarbiyashunoslikning bosh maqsadi - o'quvchida shaxslik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga erishish osonlashadi.

Muammoli ta'limda o'quvchi oldiga bilim berishga yo'naltiradigan masalalarni qo'yish ham, uning ma'naviyatini shakllantirish yo'lidagi muammoli savol yoki topshiriqlar ham muhim o'rin egallaydi. Ular muammoli vaziyat hosil qilishning asosiy sharti sanaladi. Bilim berish yoki ma'naviyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan muammoli savol yoki topshiriqlar o'quvchi uchun ma'lum qiyinchilik tug'diradigan darajada bo'lishi, avval egallagan bilimlariga mos kelishi, shu bilan birga, uning imkoniyatlari doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Muammo ko'tarilishi bilanoq uning yechimi ustida o'ylanadi va bu, o'z navbatida, yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Ta'lim amaliyotida o'qituvchining sinfga olib kiradigan ma'lumotlari o'quvchilar tayyor bilim sifatida qabul qiladigan yoki o'zlari mehnat qilib o'zlashtiradigan shaklda bo'ladi.

Ta'limning dastlabki bosqichlarida, ya'ni boshlang'ich sinflarda birinchisi ko'proq qo'llanilishi tabiiy. Lekin o'qitish kechimida bilimlarni mehnat qilib o'zlashtirish shakli ham o'rni bilan qo'llanilishi va uni tashkil etishda quyidagi me'yorlarga amal qilinishi masadga muvofiqdir:

- a) o'quvchilar mustaqil ravishda o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlar ularning imkoniyatlariga mos murakkablikda bo'lishi;
- b) berilajak materialning yechimi dasturda belgilangan vaqt oralig'ida amalga oshirilishi;

d) ijodiy yo'l bilan o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamligi va darajasi reproduktiv yo'l bilan olinadigan bilimlardan baland bo'lishi.

Muammoli ta'lim muammoni hal etish jarayonini butun sinf jamoasining faol aqliy ishiga aylantiradi.

Bu sinfdagi har bir bola shaxsining individual xususiyatlarini maksimal darajada inobatga olinishini taqozo etadi. Faqat shundagina sinfdagi jamoaning barcha a'zosi butun o'quv jarayoni davomida tom ma'nodagi ijod kishisiga, fikr odamiga aylana boradi.

O'qituvchi dars boshida muammoni qo'yish bilan birga butun dars davomida uning muammolilik darajasini uzluksiz tarzda saqlab tura olsagina, biror mavzuni muammoli tarzda o'rganish mumkin bo'ladi. Shundagina o'quvchining bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi to'liq ta'minlanadi. Aslida muammoli o'qitish kechimi uchun masalaning yechimi maqsad emas, balki o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish va o'quvchi qobiliyatlarini o'stirish yo'lidagi vositadir. Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchilar bilan individual ishlaydi. Bu undan kasbiy mahoratni talab qiladi. Muammoli ta'limda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda intellektual zo'riqishga ehtiyoj va qiziqish uyg'otishdir. Buning uchun awal qiyinchiliklar chamalanadi. Har bir bosqich ma'lum umumiy jihatlar, o'quvchining muammoni yechish yo'llarini qidirishi va topishidan iborat faoliyati bilan xarakterlanadi. O'quvchi xato qilishdan cho'chimay, o'z izlanishlari asosida masalani hal etishning rejasini tuzadi. Bu jarayonda muqobil yo'llarni ham ko'zda tutadi. Masalani anglash bilan uning yechimigacha bo'lgan yo'l qiyin va uzoq bo'lishi ham mumkin. Masalaning hal etilishida o'quvchi uchun eng muhim jihat uning yechimi haqida o'z tasavvuriga ega bo'lishdir. Bu tasavvurga asta-sekinlik bilan samarasiz urinishlardan keyin, utilmaganda erishish ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlangich ta'lim).- Toshkent, 2017. - 249 b.

3. Aydarova U.B, Azizova N.K, . O'qish savodxonligi 1-sinf 2-qism. Toshkent -2024

4. 14. Aydarova U.B. O'qish savodxonligi darsligi to'rt qismdan iborat. 2-sinf, 1-qism. Toshkent -2023

5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish. -Toshkent: TDPU, 2004.- 35 b.

6. Yoqubov SH. Xoliqova Sh. Grammatik o'yinlar o'quvchilarni faollashtirish vositasi// Ta'lim tizimida psixologik xizmat: muammolar, yechimlar.- Termiz, 2002, 84-86-bet.

7. 32. Yo'ldoshev J., Yo'ldasheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati.- Toshkent, 2008.